

JAMIYATDAN AJRATISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR TIZIMIDA MAJBURIY JAMOAT ISHLARI VA XORIJIY TAJRIBA.

Muallif: **Ma'murov Sanjarbek Ilxomovich**
(TDYU magistr, Toshkent)

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalar qatorida sud huquq sohasida ham samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Albatta, bunday islohotlar zamirida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlash asosiy o'rinni egallaydi. Sud huquq sohasida olib borilayotgan islohotlar sohasida jazolar tizimini yanada takomillashtirish, jinoyat sodir etgan shaxslar uchun jazo tayinlashda muqobil jazo turlarini ko'paytirish jinoyat qonunchiligini isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biridir.

Sud huquq sohasida olib borilayotgan samarali islohotlar sifatida sudlarning mustaqil hokimiyat tarmog'i sifatida e'tirof etilganligini, ixtisoslashtirilganligini, dastlabki tergov va qamoq tarzidagi ehtiyot choralarining muddatlari qisqartirilganligini, yarashuv tartibida ish yuritish va yuqori sud instansiyalarining joriy etilganligini, qamoqqa olish ehtiyot chorasi, amnistiya aktlarini qo'llash vakolatining sudlarga o'tkazilganligini, o'lim va mol-mulkni musodara qilish jazolarining bekor qilinganligini va boshqa liberallashtirishni ko'zlovchi tadbirlarni ko'plab keltirish mumkin. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Biz ayrim qilmishlarni liberallashtirish va ularni jinoyatlar toifasidan chiqarish, insonparvarlik nuqtai nazaridan jinoiy jazoni yengillashtirishga alohida e'tibor qaratamiz"[1] deya ta'kidlab o'tganlar.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrda qabul qilingan "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni jinoyat-huquqiy sohani liberallashtirish va qonuniylilikni ta'minlash borasidagi islohotlar jarayonida mutlaqo yangi davrni boshlab berdi. Ushbu Farmonning e'tiborga sazovor jihati shundaki, bugungi kunda muqobil jazolarning samaradorligini oshirish barcha vakolatlidavlat organlarining diqqat markaziga qaratilgan. Bizningcha, yangi muqobil jazolarni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan normalarga penalizatsiya qilish bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning o'zagini tashkil etadi deyishimiz mumkin. Chunki, ularni penalizatsiya qilish quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettirishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi:

birinchidan, muqobil jazolarning keng qo'llanilishi jinoyat huquqida inson huquqlarini ta'minlovchi asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi;

ikkinchidan, muqobil jazolar, mohiyat e'tibori bilan jinoyat qonunini liberallashtirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi;

uchinchidan, muqobil jazolarni qo'llash shaxsni jamiyatdan ajratmagan holda axloqan tuzatish imkonini beradi;

to'rtinchidan, muqobil jazolarni qo'llash davlat uchun ham ma'quldir (*iqtisodiy ma'noda — byudjet mablag'larini tejash, ijtimoiy ma'noda — ozodlikdan mahrum etish muassasalaridagi shart-sharoitning mahkumga salbiy ta'sirini oldini olish va b.q.*)

beshinchidan, milliy qonunchiligimizda muqobil jazolarning keng joriy etilishi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoida va tamoyillariga mos bo'lib, o'z navbatida, milliy siyosatning xalqaro-huquqiy siyosat bilan o'zaro hamohangligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 43-moddasida mujassamlangan jazolar tizimining normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlanishi butun jinoiy jazolar instituti uchun strategik ahamiyatga ega hisoblanadi. Tizimning bunday mavqega ega ekanligi uning qonun ijodkorligi va qonunni qo'llash faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi bilan, jazoning tayinlanishi, qo'llanilishi va ijro etilishi masalalariga muayyan darajada daxldor bo'lgan jinoyat qonuniga murojaat qilinganida mazkur moddaning holatlarini majburiy tartibda inobatga olish sharti bilan bog'liqdir. Jazo tizimi bir necha o'zining bir necha tarkibiy elementlaridan iborat bo'lib, ular o'zaro bog'liq, o'zaro aloqador va bir birlarini to'ldirib turadi. Tizimning mazkur belgisi jazolar samaradorligiga erishish masalasining yechimiga ko'p jihatli yondashuvni isbotlaydi, ya'ni qo'yilgan maqsadlarga erishish qandaydir biror xil majburlov chorasini tanlash bilan bog'lanmay, balki mahkumlarga choralar majmuasi bilan ta'sir ko'rsatish imkoniyati vositasida amalga oshiriladi. Amalda bu Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalaridagi muayyan muqobil sanksiyalarida va shuningdek, qo'shimcha jazo choralarini belgilashda va qo'llanishida o'z ifodasini topadi.

Jazo tizimi sodir etilgan qilmishning og'irlik darajasiga ko'ra ozodlikdan mahrum qilish (cheklash) bilan bog'liq bo'lgan jazolar (ozodlikni cheklash, intizomiy qismga jo'natish, ozodlikdan mahrum qilish, umrbod ozodlikdan mahrum qilish) va ozodlikdan mahrum qilish (cheklash) bilan bog'liq bo'lmagan (jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash) jazo turlariga bo'linadi[3]. Bugungi kunda jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan shaxsni jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lmagan jazo sifatida majburiy jamoat ishlarishaklidagi jazoturiijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan samarali tarzda qo'llanilmoqda. Ushbu jazo turining tarixiga nazar soladigan bo'lsak, sudning hukmi bilan aybli deb topilgan shaxsni jamoat ishlariga jalb etish ilk bor 1975-yilda Angliya va Uelsda qamoq jazosiga muqobil jazo sifatida joriy etilgan. Undan ko'zlangan asosiy maqsad jinoyatchilikning oldini olish va aybdorning qayta ijtimoiylashuviga erishish (majburiy, haq to'lanmaydigan mehnat) va daromadsiz tashkilotlar, uyushmalar, cherkovlar uchun har xil turdagi ijtimoiy foydali faoliyatni bajarish orqali ularga ko'maklashishga jalb etish yo'li bilan mahkumni axloqan tuzatishdan iborat bo'lgan.

Majburiy jamoat ishlari jazolarning asosiy turlaridan hisoblanib, milliy jinoyat qonunchiligimizda ilgari ma'lum bo'lmagan nisbatan yangi jazo turidan biridir. Majburiy jamoat ishlari mahkumga moddiy ta'sir o'tkazish bilan bog'liq jazo turiga taaluqli bo'lib, shu bilan birgalikda uni ma'lum bir darajada erkinligini cheklaydi. Majburiy jamoat ishlari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 45¹-moddasida belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra: "Majburiy jamoat ishlari mahkumni haq to'lanmaydigan foydali jamoat ishlarini bajarishga majburiy tarzda jalb qilishdan iboratdir. Mahkum ishlayotgan yoki o'qiyotgan bo'lsa, majburiy jamoat ishlari ishdan yoki o'qishdan bo'sh vaqtda o'taladi[4]. Majburiy jamoat ishlari sud tomonidan 16 yoshdan oshgan shaxslarga jinoyat uchun jazo turi sifatida Jinoyat kodeksi maxsus qismining moddalarining sanksiyasida bevosita ko'rsatilganda tayinlanishi mumkin bo'ladi. Mazkur jazo turi Jinoyat kodeksi maxsus qismining moddalarini sanksiyasida nazarda tutilmagan bo'lsa, yengilroq jazo tayinlash uchun asoslar mavjud bo'lganda Jinoyat kodeksi maxsus qismining moddalariga muvofiq tayinlanishi mumkin.

Mahkum jazoni o'tashdan bo'yin tovlagan taqdirda, sud majburiy jamoat ishlarining o'talmagan muddatini majburiy jamoat ishlarining to'rt soatini ozodlikni cheklashning yoki ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga tenglashtirgan holda hisoblab, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtirishi mumkin. Jazoni o'tashdan bo'yin tovlanilgan vaqt jazoning o'talgan muddatiga qo'shib hisoblanmaydi. Majburiy jamoat ishlari pensiya yoshiga yetgan shaxslarga, o'n olti yoshga to'lmagan shaxslarga, homilador ayollarga, uch yoshga to'lmagan bolalari bor ayollarga, birinchi va ikkinchi guruh

nogironlariga, harbiy xizmatchilarga, chet el fuqarolariga va O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Majburiy mehnat shaklidagi jazo turi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarining jinoyat qonunchiligida asosiy jazo chorasi sifatida bugungi kunda qo'llanilib kelinmoqda. Misol tariqasida aytishimiz mumkinki, Armaniston (JK 54-modda), Belarus Respublikasi (JK 49-modda), Gruziya (JK 44-modda), Latviya (JK 40-modda), Litva (JK 46-modda), Moldova (JK 67-modda), Ozarbayjon (JK 47-modda), Rossiya Federatsiyasi (JK 49-modda), Ukraina (JK 56-modda), Qirg'iziston (JK 43-modda) va Qozog'iston (JK 42-modda) davlatlarining jinoyat qonunlarida ham mazkur jazo turi nazarda tutilgan holda ularningo'ziga xosligini turlicha nomlanishida ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, Armaniston, Belarus Respublikasi, Ozarbayjon, Ukraina, Qirg'iziston, Qozog'istonda jamoat ishlari deb, Gruziyada ijtimoiy foydali mehnat, Moldovada jamiyat foydasiga haq to'lanmaydigan mehnat, Latviya, Rossiya Federatsiyasi, Tojikistonda majburiy mehnat hamda Litvada ommaviy ishlar deb atalishini ko'rishimiz mumkin. Garchi mazkur davlatlar jinoyat qonunchiligida ushbu jazo turli xil shakldagi nomlar bilan ifoda etilgan bo'lsa-da, ular mazmunan bir xil jazo turi hisoblanadi va faqatgina, bir-biridan jazo muddati, tayinlashning ayrim shartlari bilan farqlanadi.

Yevropaning ayrim rivojlangan davlatlarida, xususan, Buyuk Britaniyada jamoat ishlarini mahkum yil mobaynida ishlab berishi lozim bo'lgan soatlarining umumiy miqdori 40-240 soat atrofida bo'ladi (voyaga yetmaganlar uchun soatlar miqdori 120 soatdan oshmasligi kerak). Majburiy jamoat ishlari aybdorning bo'sh vaqtida, odatda, kechqurun va dam olish kunlarida va nazorat qiluvchi organlar kuzatuv ostida bajariladi. Jazoga tortilgan shaxslar turli ijtimoiy topshiriqlarni bajaradilar: bog'lar, ko'chalar va xiyobonlarni tozalash, bezash va tartibga solish, ko'chatlar ekish, devorlarni oqlash, bo'yash va ta'mirlash, jamoat binolarini bezash, qariyalar va bemorlarga yordam ko'rsatish, mahalliy jamoalarning ijtimoiy dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etish va shu kabi shakllarda o'talishi belgilangan.

Shvetsiyada esa majburiy jamoat ishlari jazosi jazo tizimida bevosita yangi jazo sifatida 1993-yil 1-yanvardan joriy etilgan bo'lib, u probatsiyaning maxsus shakli hisoblanadi. Bu turdagi sanksiya qo'llanilgan aybdor shaxs jamiyat foydasiga 40 soatdan 200 soatgacha bepul ishlab berishi shart (kechki payt, dam olish kunlari). Lekin, Shvetsiyada bu jazoning qo'llanilishining o'ziga xos jihati sifatida qo'llanilishi mumkin bo'lgan yosh chegarasi belgilangan. Unga ko'ra mazkur sanksiya asosan 18 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.

Portugaliyada davlatining jazo tizimida majburiy jamoat ishlari qamoq jazosiga muqobil sanksiya sifatida sud tomonidan qasddan sodir etilmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun qo'llaniladi. Majburiy ishlarning soatlari miqdori 180 soatga yetishi mumkin. Mahkum doimiy ish joyiga ega bo'lsa, u 8 soatlik ish kuniga qo'shimcha tarzda har kuni 2 soat majburiy va tekinga ishlab berishi lozim. Xulosa qilib aytganda, muqobil jazolarning samaradorligini oshirishda majburiy jamoat ishlari jazosining qonunchilikka joriy etilishi, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ko'plab ijobiy jihatlari bilan o'zini oqlab kelmoqda. Qolaversa, jinoyat qonunchiligimizni yana bir insonparvarlik normasi bilan to'ldirilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 2017-yil 22-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni 4850-son. 21.10.2016 yil.

-
3. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 2. Jazo haqidata'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliygvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 37 bet.
 4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.